

TARIXIY MANBALAR SHARHI – OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA MUSIQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH OMILI SIFATIDA

Ernazarova G.O.

ChDPU, "Umumiy pedagogika" kafedrasini mudiri, p.f.d., prof.

Abdullayev X.Sh.

ChDPU, mustaqil tadqiqodchi

Tayanch soʻzlar: musiqiy madaniyat, tarixiy manba, ma'naviy musiqiy madaniyat, ma'lumot, mustaqil ishlar, musiqiy meros, musiqa atamaları, madaniy sifatlarni tarbiyalash.

Ключевые слова: музыкальная культура, исторический ресурс, духовная музыкальная культура, информация, самостоятельная работа, музыкальное наследие, музыкальные термины, воспитание культурных качеств.

Key words: musical culture, historical resource, spiritual musical culture, information, independent work, musical heritage, musical terms, education of cultural qualities.

Yosh avlodning hayot va san'atdagi go'zalliklarni teran idrok etishida, ularning madaniy tuyg'u va badiiy didlarini o'stirishda adabiyot, madaniyat va san'at katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham pedagogika fani, ta'lim amaliyotida o'ziga xos maktab yaratgan mashhur allomalar, olimlar, tarbiyachilar yosh avlodga beriladigan bilimlar tizimida musiqiy mazmun va mohiyat kasb etuvchi bilimlarga alohida ahamiyat berganlar. Ular musiqiy madaniyatga daxldor har bir mashg'ulot shaxsning barkamol rivojlanishiga samarali ta'sir o'tkazishda muhim vositalardan biri ekanligini ta'kidlaganlar.

Xususan, Safiuddin Urmaviy (1216-1294), Qutbiddin Sheroziy (1236-1310), Abdulqodir Marog'iy (XIV asr), Mahmud Omuliy (vafoti 1349), Abdurahmon Jomiy (1414-1492), Zaynulobidin Husayniy (XV asr), Najmiddin Kavkabi (XVI asr), Darvish Ali Changiy (XVII asr) kabi allomalar Forobiy, Ibn Sino, Ibn Zayla va Xorazmiylarning musiqa ilmi haqidagi asarlari shunga misol bo'la oladi. X-XI asrlar Sharq musiqashunosligining yozma yodgorliklarini manbashunoslik va matnshunoslik jihatidan o'rganish XX asrning o'ttizinchi yillaridan qizg'in pallaga kirdi.



Bu xayrli ishning peshqadami buyuk frantsuz olimi baron D'Yerlanje bo'ldi. 1930-1939 yillar davomida uning Parijda nashr ettirgan "Arab musiqasi" nomli ko'p jildlik asarida o'rta asrlarda arab tilida yaratilgan musiqiy nazariy risolalardan asosiylari frantsuzcha erkin tarjimai, tahlili va sharhi bilan berilgan edi. Biroq bu ulkan ish tarkibiga risolalarning asl matnlari kirmagan [2].

Hozirgi kun nuqtai nazaridan musiqa atamalarining sharhida noaniqliklar bordek tuyuladi. Bu noaniqliklar Sharq (arab) musiqa atama va tushunchalarini Yevropa xalqlari musiqa atama va tushunchalariga moslashga harakat qilishida bo'lishi mumkin.

Ammo D'Yerlanjening mazkur asari o'z qiymatini yo'qotgan emas, o'rta asrlar Sharq musiqa ilmiga tegishli risolalarni o'rganuvchilar uchun u hamon qimmatli manbadir. X-XI asrlarda O'rta Osiyodan chiqqan olimlar tomonidan arab tilida yaratilgan musiqa ilmiga oid uch muhim asar qo'lyozmalari XX asr arab sharqshunoslari tomonidan tadqiq etilgan, tanqidiy matnlari tuzilgan va nashr etilgan [1].

Birinchisi, Ibn Sinoning "Musiqqa ilmi to'plami"ning tanqidiy matni 1956 yil Qohirada nashrdan chiqdi. Tanqidiy matn va kitob muqaddimasini Zakariya Yusuf tayyorlagan. Muqaddimada "Musiqqa ilmi to'plami"ning mavjud va ma'lum qo'lyozmalari haqida gap boradi. Kitobda Mahmud Ahmad Hafniyning kirish so'zi ham bor. Kirish so'zida o'rta asrlar Sharq musiqashunosligi, Kindiy, Forobiy va Ibn Sino musiqiy-nazariy qarashlari muhokama qilinadi va tanqidiy matnni tayyorlashda foydalanilgan qo'lyozmalardan ikkitasiga baho beriladi [5].

Umuman, Ibn Sinoning "Musiqqa ilmi to'plami" asarining tanqidiy matni uchun yozilgan muqaddima ilmiy jihatdan kamtarona yozilgan. Ikkinchisi, 1964 yil Zakariya Yusuf Ibn Zaylaning "Musiqqaga oid to'liq kitob"ining tanqidiy matnini chop etdi. Nihoyat, 1967 yilda G'attos Abdulmalik Hashaba Forobiyning "Katta musiqa kitobi"ning tanqidiy matnini ilmiy sharhi bilan e'lon qildi.

Mazkur tadqiqotga Mahmud Ahmad Hafniy muharrirlik qildi va kirish so'zi yozdi. Bundan tashqari, tanqidiy matn oldidan tadqiqotchi G'attos Abdulmalik Hashabaning muqaddimasi bor.

Ustoz Hashaba betma-bet berib borgan sharhlar hajmi tanqidiy matnning hajmidan ancha katta. Matnning sharhi ilmiy tomondan puxta jihozlangan. Tarixiylik tamoyilini tashkil etish biz kuzatgan OTM sharoitida «Musiqqa adabiyoti» kursini o'qitish jarayonida Sharq mutafakkirlarining ta'limoti hamda zamonaviy yangi uslubiy-nazariy ma'lumotlarni talabalarga yetkazishda muhim ahamiyatga egadir. Bunda eng muhim vazifalardan biri xalqimizning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini tiklash, buyuk ajdodlarimiz-shoirlar, olimlarning merosini xalq mulkiga aylantirishdan iborat.

Shuningdek, yoshlarda xalqning o'z tarixi, madaniyati, ma'naviy qadriyatlarini bilan bog'liq manbalarga ishonchni orttirish zarurdir. Madaniy saviyaning shakllanishi va rivojlanishi ham ana shu jarayon bilan birga kechadi. Bu o'z navbatida tarbiyaning barcha jihatlari bilan birga chambarchas bog'liq bo'lib, yuksak insoniy dunyoqarashning shakllanishi bilan uyg'unlashib ketadi.

Tadqiqotimiz jarayonida qimmatli tarixiy manbalar hisoblangan «Avesto», Ma'mun akademiyasi olimlari asarlari va Sharq mutafakkirlarining pedagogik ta'limoti hamda Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr ibn Iroq, Abu Sahl Masihiy, Abulxayr ibn Hammor, Abu Abdulloh ibn Yusuf al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Miskavayx, Abu Mansur as-Saolibiylarning ma'naviy axloqiy tarbiya haqidagi qarashlaridan musiqiy madaniyatni shakllantirishda muhim ma'lumotlarni to'plash, o'rganish, ularni ma'ruzalar, seminar mashg'ulotlari, mustaqil ishlar jarayonida talabalarga taqdim etishga harakat qildik.

Tadqiqot vazifalariga muvofiq talabalarining musiqiy madaniyatini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari pedagogik qarashlar, tarixiy manbalar, talaba musiqiy tarbiyasiga oid fikr va g'oyalar, ularning pedagogika fani rivojidagi ahamiyati, mutaxassislar tayyorlashdagi imkoniyatlari, bu imkoniyatlarni pedagogika fanini o'qitishda foydalanishga qaratilgan model ishlab chiqish borasida amaliy ish olib borildi va amaliyotda sinovdan o'tkazildi [4].

Tadqiqot jarayonida bo'lajak o'qituvchilar uchun talabalarining musiqiy madaniyatini shakllantirish, «Avesto» va Sharq mutafakkirlarining pedagogik ta'limoti hamda Ma'mun akademiyasi allomalari qarashlari orqali talabalarda madaniy sifatlarni tarbiyalashga yo'naltirish mazmuni quyidagilardan iborat deb topildi:

1. O'qituvchi o'rganiladigan fan, har bir mavzuning talabalar musiqiy madaniyatini shakllantirish va ularni o'tmishning boy merosi bilan tanishtirish imkoniyatlarini bilishi va hisobga olishi zarur.

2. Musiqiy madaniyatni shakllantirishning ildizlari qadim o'tmishga borib taqalishini, ta'lim-tarbiya masalalarini tarixiy va nodir manbalar bilan bog'lay olishi kerak.

3. Mutafakkirlar Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr ibn Iroq, Abu Sahl Masihiy, Abulxayr ibn Hammor, Abu Abdulloh ibn Yusuf al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Miskavayx, Abu Mansur as-Saolibiyning pedagogik g'oyalarining asosiy yo'nalishlari, ularning inson, uning jamiyatdagi o'rni, fan va dinning o'zaro munosabatlari, tarbiyaning maqsadi, tarkibiy qismlari, musiqa va estetik tarbiya; ularni tashkil etish shakli va usullari, tamoyillari, ta'lim jarayonlari bo'yicha gnoseologik qarashlarini bilishi muhim.



4. Sharq allomalarining musiqiy madaniyatni shakllantirishga oid fikr va g'oyalarini yoritib beradigan materiallarni har bir mavzuga zo'rmazo'raki emas, balki ularni o'quv rejasida ko'zda tutilgan o'quv materiali mazmuniga mantiqiy va tabiiy mos holda uyg'unlashtirish zarur.

5. Tanlangan material ilmiy, asosli, izchil, ishonchli, yorqin va obrazli bayon qilinishi, talabalarning alohida qiziqish va e'tiborini jalb qilishi kerak.

6. Talaba-yoshlarning musiqiy madaniyatini shakllantirishda oliy ta'lim muassasalarida uzviylikka e'tiborni qaratish va amal qilinishi lozim. Sharq musiqasi – sharq falsafasining uzviy bir qismidir. Sharq musiqasining jahon madaniy merosida tutgan o'rni benihoya buyuk.

Sharq xalqlari musiqa madaniyati tarixini o'rganishda o'rta asrlar musiqa ilmiga oid asarlar asosiy manba sifatida qaralishi kerak. Bu asarlar turli shaqllarda, jumladan, mustaqil risola sifatida yoki qomusiy asarning bir qismi sifatida arab, fors va turkiy tillarda Yaqin va O'rta Sharqda ko'p asrlar davomida, ya'ni VII asrdan XX asrga qadar yaratildi [6].

Musiqa ilmining rivojida eng muhim davrlardan biri, Sharq Uyg'onish davri yoki Musulmon Uyg'onish davri deb ta'riflangan X-XI asrlarga to'g'ri keladi. Bu davrga xos musiqa ilmi quyidagi belgilar bilan ajralib turar edi:

1) beqiyos samaradorligi (musiqa ilmiga oid yuzlab asarlar yaratilgan, biroq ulardan ba'zilarigina bizgacha saqlanib qolgan);

2) yuqori nazariy saviyasi;

3) arab tilining ilm tili sifatida hukmronligi (musiqa ilmiga oid asarlar asosan, arab tilida yozilgan);

4) musiqaga doir manbalarning to'plana boshlashi bilan O'rta Osiyodan yetishib chiqqan olim va mutafakkirlar Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Ibn Zayla va Abu Abdulloh Xorazmiy X-XI asrlar Sharq musiqa ilmining shakllanishiga va rivojiga asosiy va hal qiluvchi hissa qo'shganlar.

Musiqaning kelib chiqishini turli afsonalar, diniy rivoyatlar bilan bog'lamagan holda ilmiy yondashuv bilan sharhlagan bu zotlar musiqa ilmni matematikaning tarkibiy qismi deb qaraganlar va ular yaratgan bu sof ilmiy yo'nalish xalflar tomonidan qabul qilingan [6].

Masalan, "Qobusnoma" muallifi Kaykovus shunday yozadi: "Hamma vaqt chalaverma, chunki barcha yo'lni bir xilda chalmaslik kerak, negaki, odamlarning hammasi bir xilda emas, tabiatlari ham birbirlariga muvofiq emas, chunki xalq xilmaxildir.

Shuning uchun musiqa ilmining ustozlari musiqa asboblariga shunday tartib berganlarki, avval podshohlar majlisi uchun hisravona dostonlar tuzganlar, undan keyin vaznsiz bir og'ir yo'l tuzdilar, uni maqom bilan aytsa bo'ladi, unga og'ir yo'l deb nom berdilar. Bu yo'l keksalarning va aqlli odamlarning tabiatiga mos

keladi. Bu yo'lni shunday qavm uchun yaratdilar. So'ngra ustozlar ko'rdilarki, xalqning hammasi qari va jiddiy kishilar emas.

Shuning uchun yigitlarga moslab bir yo'l ishlab chiqdilar.

So'ngra yengilroq vaznli she'rlar uchun yengil yo'llar tuzdilar, bularga "xafif" deb nom qo'ydilar. Og'ir yo'ldan so'ng bu xafif yo'lni chaldilar, musiqachilar bundan qarilar ham, yigitlar ham bahramand bo'lsinlar, deb o'yladilar. So'ngra yosh bolalar va yoqimli tabiatli odamlarning ba'zilar bebahra qoldilar. Bu qavm uchun taronani ishlab chiqdilar, toki bu qavm ham bahra olsinlar, rohat qilsinlar, chunki hamma vaznlarning orasida taronadan yoqimli vazn yo'qdir. Demak, bularning hammasini bir xil qilib chalmagil, bir xil qilib kuylamagin, men aytgandek chalgil. Demak, butun xalq, sening sozingdan, ovozingdan bahramand bo'lsin". Kaykovusning mazkur fikrlari musiqa ilmining jamiyat talablariga asosan rivojlanib borganini o'rganishda muhimdir.

Musiqiy merosni o'rganishda Abu Nasr Forobiyning ilmiy merosi ham diqqatga sazovor manbalardan hisoblanadi. San'atshunoslik fanlari doktori A.F.Nazarovning tadqiqotida Forobiyning g'oyasi tarixda birinchi bo'lib vujudga kelgan musiqiyvirtual vaqt ta'limoti sifatida baholanadi. Shuningdek, Forobiy iqo' nazariyasining unsuriy asoslari, davr, fosila, usul, djins, zamonul-mabda'a, mikyolul-avval, zamon (azmina), intiqol va boshqa tushunchalarining ma'no doiralari yoritiladi, iqo' turlari, shaql va sinflarining tasnifi sharhlanadi.

Tadqiqotda Forobiy ilk bor tasnif qilgan 12 asosiy iqo' shaqlari – usullar, ularning ikki – saqil va xafif – sinflarga ajratilgan turlari batafsil bayon etilgan. Forobiyning birinchilardan bo'lib tartib bergan 16 ritmik naziralar – ma'uulot tizimi ishda alohida tushuntirilgan. Eng avvalo, Forobiyning o'zi mohir musiqachi bo'lgan. U ijro etgan kuylarning tinglovchilarga qanchalik ta'sir etganligi haqida o'sha davrdagi afsona va rivoyatlar hozirgi kungacha yetib kelgan. Forobiy shu bilan birga mohir bastakor, musiqa nazariyotchisi, shuningdek musiqa cholg'usi ijodkori hamdir. U yasagan soz turli manbalarda turlicha, ya'ni ud, g'ijjak yoki qonun deb atalib kelingan.

Forobiy «Musiqa haqida katta kitob» nomli ko'p jildli asari bilan o'rta asrning yirik musiqashunosi sifatida mashhur bo'ldi. U musiqa ilmini nazariy, amaliy tarmoqlariga, kuylarning ichki tuzilishi, qonuniyatlarini hisobga olib ilmi ta'rif va ilmi iqa'ga ajratadi.

Forobiy musiqa nazariyasida tovushlar vujudga kelishining tabiiy-ilmiy ta'rifini beribgina qolmay, kuylar garmoniyasining matematik printsiplarini ochadi, turli jadvallar, geometriya qoidalari asosida ko'plab murakkab chizmalar keltiradi. U Sharq musiqasining ritmik asosini dalillar bilan sharhlab bergan. Ritmlarni tashkil etgan zarb birliklari bo'lmish naqralar, ularning birikmasidan hosil etiladigan ruknlarning turli xillari asosida yaratiladigan ritm o'lchovlari va



turlarini yoritib bergan. Bu asarda faqat musiqa nazariyasi emas, balki musiqa tarixi ham bayon etilgan. Yosh avlodni har tamonlama yetuk qilib tarbiyalashda oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan barcha fanlar qatori, san'atning tarkibiy qismi bo'lmish musiqa darslari katta ahamiyatga ega.

Musiqa inson his-tuyg'ularini, orzu istaklarini o'ziga xos badiiy tilda ifoda etadi va kishining hissiyotlariga faol ta'sir ko'rsatadi.

Musiqa darslari talabalarning estetik va axloqiy tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ulardagi go'zallikka bo'lgan his-tuyg'ularning rivojlanishiga yordam beradi, ularni barkamol shaxs bo'lib yetishiga zamin yaratadi. Jumladan, O'rta Sharq mutafakkirlarining musiqiy-pedagogik merosidan ta'lim jarayonida foydalanishning pedagogik asoslari, uning o'ziga xos xususiyatlari va mohiyatini aniqlash; sharq musiqiy merosi vositasida talabalarga musiqiy ta'lim berishning pedagogik shart-sharoitlari, shaql va metodlarini umumlashtirish va yagona tizimga keltirish masalalari hozirgi kunning dolzarb muammosi bo'lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda o'zbek xalqining boy musiqiy merosi jahon xalqlari musiqiy merosi bilan bir qatorda asrlar davomida avloddan avlodga o'tib, musiqiy madaniyatning shakllanishi va rivojlanishida muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Kadirov R. Muzikalnaya pedagogika. - T.: MUSIQA, 2009. – 504 s.
2. Karamatova B.M. Pedagogicheskiye osnovi ispolzovaniya muzikalnogo nasleidiya mislitleye Srednego Vostoka v uchebno – vospitatelnom protsesse shkoli (na primere urokov muziki): - Avtoref. diss. ... kand. ped. nauk. – T.: 2000 – 19 s.
3. Oripov Z. Sharq musiqiy manbashunosligi (X-XI asrlar). – T.: FAN va texnologiya, 2008. – 160 b.
4. Oripova R. O'smirlarda milliy g'oya tushunchalarini shakllantirish (maktabdandan tashqari muassasalardagi musiqiy to'garaqlar misolida). T., 2007,-76 bet.
5. Soipova D. Musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonidao'quvchi shaxsini shakllantirish. P.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgandiss. (13.00.01.), 2006 y., -198 b.
6. Soipova D. Musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayoninitakomillashtirish. - T.: Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2005 y., -84 bet.

РЕЗИОМЕ

Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarida musiqiy madaniyatni shakllantirishga oid tarixiy manbalarni sharhlash asosida ma'naviy musiqiy madaniyatni shakllantirishda muhim ma'lumotlarni to'plash, o'rganish, ularni ma'ruzalar, seminar mashg'ulotlari, mustaqil ishlar jarayonida talabalarga taqdim etish, talabalarda madaniy sifatlarni tarbiyalash, musiqiy merosni o'rganish masalalari yoritildi.

РЕЗИОМЕ

В данной статье освещены вопросы сбора, изучения важной информации по формированию духовной музыкальной культуры у студентов высших учебных заведений на основе интерпретации исторических источников, касающихся формирования музыкальной культуры, их представления студентам в процессе лекций, семинарских занятий, самостоятельной работы, воспитания у студентов культурных качеств, изучения музыкального наследия.

SUMMARY

This article highlights the issues of collecting and studying important information on the formation of spiritual musical culture among students of higher educational institutions based on the interpretation of historical sources related to the formation of musical culture, their presentation to students during lectures, seminars, independent work, education of students' cultural qualities, studying musical heritage.